

Fanlar akademiyasiga tegishli bo'lgan veb-saytga qilingan hakerlik hujumi to'g'risidagi xabar bo'yicha ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot instituti veb-saytiga (<http://instmech.uz/>) hakerlik hujumi qilinganligi to'g'risida ijtimoiy tarmoqlarda xabarlar tarqaldi (@mvdlife). Ushbu xabar bo'yicha quyidagilarni ma'lum qilamiz:

Hakerlik hujumi uyushtirilgan veb-sayt O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti veb-sayti bo'lib, mazkur holat Institut mas'ul xodimlari tomonidan bartaraf etildi. Fanlar akademiyasi tomonidan ilmiy-tadqiqot muassasasining veb-saytini takomillashtirish va xavfsizlik choralarini kuchaytirish bo'yicha topshiriqlar belgilandi.

Saytga qo'yilgan bank plastik kartasi Baboyev Babakulga tegishli ekanligi aniqlandi.

Eslatib o'tamiz, kiberjinoyat uchun javobgarlik belgilangan.

Jinoyat kodeksining (<https://lex.uz/docs/111453>) bir qator moddalarida kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlar va ularga nisbatan javobgarlik ko'zda tutilgan.

Jumladan, ushbu kodeksning 278⁵-moddasiga ko'ra, o'zganing kompyuter uskunasini qasddan ishdan chiqarish, xuddi shuningdek, kompyuter tizimini buzish (kompyuter sabotaji):

3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilib, 66 mln 900 ming so'mdan 89 mln 200 ming so'mgacha miqdorda jarima;

2 yilgacha ozodlikni cheklash;

2 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.